

## **O‘QITUVCHI VA O‘QUVCHI O‘RTASIDAGI NIZOLAR VA ULARNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

*Ro‘zmatova Shahnoza Ilhomovna  
Andijon viloyati shahrixon tumani  
42- umumiy o‘rta ta’lim maktabi psixologi*

**Annotatsiya:** ushbu maqolada o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi nizolar va ularning o‘ziga xos xususiyatlari haqida so‘z yuritilib, pedagogik konfliktga to‘xtalib o‘tilgan.

**Kalit so‘zlar:** konfliktologiya, konflikt, ziddiyat, tarbiya, ta’lim, qobiliyat, muloqat, layoqat.

**Аннотация:** В данной статье говорится о конфликтах между учителем и учеником и их специфических особенностях, а также затрагивается педагогический конфликт.

**Ключевые слова:** конфликтология, конфликт, конфликт, воспитание, образование, способности, общение, компетентность

**Annotation:** This article talks about the conflicts between the teacher and the student and their specific features, and touches on the pedagogical conflict.

**Key words:** conflictology, conflict, conflict, upbringing, education, ability, communication, competence.

Pedagogik konfliktologiya bu o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi ziddiyatlarni, nizolarni o‘rganuvchi fandır. Pedagogik va psixologik adabiyotlarda ziddiyatlar va nizolar pedagogik konfliktlar ham deb yuritiladi. Pedagogik konfliktlar deganda biz o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi ta’lim jarayonida kuzatiladigan ziddiyatlar, tortishuvlar kelishmovchiliklar, qarama-qarshiliklarni tushunamiz.

Konflikt tushunchasi ilmiy adabiyotlarda bir xil ma’noda qo‘llanilmaydi. Turli soxa va yo‘nalishlarda uchrashi mumkin. «Konflikt» atamasining juda ko‘p ta’riflari mavjud. «Konflikt» tushunchasiga nisbatan eng umumiy yondoshuvga ko‘ra, u ziddiyatga umumiy tushuncha sifatida, eng avvalo, ijtimoiy ziddiyat sifatida qaraladigan tushunchadir.

Har qanday ziddiyatning rivojlanishi murakkab jarayon bo‘lib, u ob’ektiv ziddiyatlarning yuzaga kelishi, avj olishi va hal etilishi asosida ro‘y beradi. Ziddiyatlarga faylasuflar esa ziddiyatlari bu ishlab chiqaruvchi kuchlar bilan ishlab chiqarish munosabatlari o‘rtasidagi, ba’zan ishlab chiqarish bilan iste’mol o‘rtasidagi, eski bilan yangi o‘rtasidagi kelishmovchilikni ziddiyat deb tushunganlar[3].

Demak, ziddiyatlar muayyan darajada olimlar e’tiborini o‘ziga tortgan. Bu holatni konfliktlar nazariyasiga taalluqli deb xisoblash mumkin. Bundan ko‘rinib turibdiki, ziddiyatlar va konfliktlar xamda nizolar deyarli bir ma’noga egadir.

Pedagogika va psixologiyada umuman olganda pedagogika soxasida nizolar va ularni bartaraf etish masalasi har doim dolzarblikni kasib etib kelmoqda.

O‘rganishlardan ma’lum bo‘lishicha pedagogika soxasida xususan o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida bu borada qilinishi kerak bo‘lgan ishlar ko‘p.

O‘qituvchi ya’niy pedagog har tomonlama o‘quvchilarga bilimlarini berishi uchun avvalo o‘zi bilimli va tarbiyali bo‘lishi lozimdir.

Pedagog o‘z mutaxassisligini puxta egallashi keng bilim doirasiga ega bo‘lishi ta’lim jarayonini olib borayotgan paitda ta’limni hayot bilan bog‘lashi lozimdir. O‘qituvchining pedagogik mahorati, qobiliyati asosan sinf auditoriya mashg‘ulotlari, konferentsiyalar jonli ma’ruzalarni tushuntirishida yaqqol ko‘zga tashlanadi.

O‘qituvchi ta’lim tarbiya jarayonini o‘rgatish bilan birgalikda, o‘quvchilarni ham jonli muloqotga chorlay olishi o‘quvchilarni mustaqil fikrlarini tinglay olishi, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi samimiy munosabtni yo‘lga qo‘yishi lozim. O‘qituvchi-pedagog guruh bilan ishlashda guruhdagi har bir o‘quvchini temperamenti, xarakter qobiliyati, ruhiyati, oilaviy muhiti, hulq-atvorini, bilim saviyasini o‘rganib, shunga qarab har bir o‘quvchiga qanday yondashishni o‘rganishi lozimdir. Masalan sinfda 32 ta talaba o‘qiydigan bo‘lsa har bir bolani xakteri jihatidan farqli tomonlarini ko‘rishimiz mumkin. Jamiyatda yashovchi shaxslarimiz tashqi ko‘rinishlaridan gavdasini tuzilishi, ozg‘in semizligi yoki boshqa belgilari yuz tuzilishlari bilan o‘xshishi mumkin, lekin xarakterlari jihatdan keskin farqlanadi.

Olimlarimiz o‘z tajribalarida shuni aniqladiki bitta tuxumda rivojlangan egizaklarimiz ham tashqi ko‘rinishdan bir-birlariga juda o‘xshasalarda lekin xarakter xususiyatlariga ko‘ra farqlanadi. Masalan, biri qiziqqon ko‘p narsalarni o‘zlashtirishga harakat qilishi kirishuvchanligi bilan farqlansa ikkinchisi tabiatan og‘ir suragan savolga javob beruvchi bo‘lishi mumkin. Endi guruh misolida to‘xtalar ekanmiz, har bir guruhda iqtidorli, talantli qiziquvchan yoshlar bilan bir qatorda layoqatsiz qobiliyati jihatidan sust, yoki tabiatan og‘ir kamgap va serjahl qiziquvchan o‘quvchilar ham bo‘ladi.

O‘qituvchining asosiy vazifasi har tomonlama etuk shaxslarni tarbiyalashda yangi kadrlarni tarbiyalab berishdir. Pedagog o‘quvchilar bilan ishlash jarayonida ularga yakka individual yoki kompleks holatlarida yondashmog‘i lozimdir. Sinf yoki auditoriyalardagi dars jarayoniga e’tiborimizni qaratsa, ayrim talabalar berilayotgan ma’lumotni birdaniga o‘zlashtira olmaydilar, bunday hollarda albatta pedagog ta’lim jarayonida individuallikka tayanishi mumkin.

Pedagogning kompleks yondashishi o‘z navbatida ota-onalari bilan hamkorlikda bo‘lishi, ko‘proq ota-onalar bilan muloqotda bo‘lib, sinf majlislarida echilayotgan masalalarda ota-onalarni ham fikrlarini inobatga olishi lozimdir. Agar o‘qituvchi tomonidan yuqoridagi fikrlarga e’tibor qaratilsa, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi konflikt paydo bo‘lishi bartarf etiladi. O‘quvchi ham o‘qituvchiga nisbatan samimiy munosabatda bo‘lishi, hurmatini joyiga qo‘yishi kerak. O‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida ma’lum bir masofa kontakt bo‘lishi lozimdir.

#### **Adabiyotlar:**

1. Azizxodjaeva N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – T.: Fan, 2006.
2. Saidaxmedov N, Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar mohiyati va zamonaviy loyihasi -T.,PTM, 1999.
3. Работа с конфликтом: навыки и стратегия действия. Лондон, Конфликтологический центр, 2001. С.23.